**FARG‘ONA VILOYATI DAVLAT STATISTIKA BOSHQARMASI**





# FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021-YIL YANVAR-NOYABR***

***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Farg‘ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021-yil yanvar-noyabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida Farg‘ona viloyati korxonalari tomonidan 24 392,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,7%ni tashkil etdi.

| 0,5% | 93,7% | 5,3% | 0,6% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr |
|---|---|---|
| B | 82,8 % | 48,3 % |
| C | 98,6 % | 108,1 % |
| D | 112,9% | 114,2 % |
| E | 133,6 % | 69,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 8,1 %ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 14,2 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-noyabr**

| | Hajm | % |
|---|---|---|
| 2021-yil | 115,7 mlrd. so‘m | 48,3 % |
| 2020-yil | 104,6 mlrd. so‘m | 82,8 % |

B

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.*

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

| | 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|---|
| B | 0,6% | 0,5 % |

Yanvar-noyabr

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da*






## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22 845,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,7%ini tashkil etdi.*




*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2020-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 14,1 % (15,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 26,8 % (29,4 %) va quyi texnologiyalisi – 58,5 % (54,2 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,9 % (2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,5%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 34,4% (2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 127,1 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,7 % (2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,2% (2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da*

**Dizel yoqilg‘isi ming t**




**Avtomobil benzini ming t**




**Klinker Sement ming t**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan) ming t**




**Portland Sement ming t**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni ming t**



**Neft bitumi ming t**




**Aroq ming litr 100% spirt**




**Uzum vinosi ming l**




**Karbamid, ming tonna**




**Paxta chigiti , ming tonna**




**Paxta linti ming t**




*2021-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 209,2 ming tonna avtomobil benzini (2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 34,9 %ga oshgan), 338,7 ming tonna dizel yoqilg`isi (15,4 % oshgan), 123,4 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (27,4 %ga ortgan) hamda 65231,8 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (24 %ga ortgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Avtomobil benzini, ming t** | 155,1 | 209,2 | 54,1 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.** | 262,2 | 235,8 | 26,4 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 35,7 | 56,7 | 21,0 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | 27,3 | 18,1 | 9,2 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




| 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|
| 150,9 | 144,8 |



| 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|
| 293,4 | 338,7 |




| 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|
| 1210,8 | 873,7 |




| 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|
| 20164 | 15903 |

*Farg'ona viloyatida 2021-yil yanvar–noyabr oylarida jami 144,8 ming nonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 15,4 %, klinker sement ishlab chiqarish 17,9% ortgan. Spirt ishlab iqarish 15903 ming litrni tashkil etgan va spirt ishlab chiqarish 21,1 % kamaygan.*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 127,9 mlrd so‘mni yoki jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,7 foizini, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 190,5 mlrd so‘mni yoki jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,8 foizini tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 2235,5 mlrd so‘mni yoki jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 11,8 foizini tashkil etgan, 2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 2645,1 milion so`mni tashkil etdi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 10,8 foizni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 3247,5 mlrd so‘mni, joriy 2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3757,8 milion so`mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi 7,5 foizga oshgan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 65,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakun-lariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 62,4 milion so`mni tashkil etib 3,1 mlrd so'mga kamaygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,3 foizni tashkil etdi.*




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4555,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami sanoatdagi ulushi 24,0 foizni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 7072,6 mlrd so'mni tashkil etdi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 29,0 foizni tashkil etdi va 5,0 punktga ko'paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2020-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 foizni yani jami ishlab chiqarish 657,0 mlrd so'mni tashkil etgan, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 4,0 foizni tashkil etib 983,1 mlrd so'mga tengdir. Farg'ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2020 yilning mos davriga nisbatan 326,1 mlrd so'mga ortgan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 2102,0 million so‘mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,62 foizni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha 2435,7 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami sanoatdagi ulushi 10,0 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2020-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 2018,8 mlrd so`mni tashkil etib jami ishlab chiqarish sanoatining 10,6 foizini tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 117,8 mlrd so‘mga ko‘payib 2136,6 mlrd so‘mni tashkil etdi..*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2020-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 foizni yani 373,7 mlrd so‘mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o‘tgan yilga nisbatan 171,9 mlrd so‘mga ko‘paygan. Sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,2 foizni yoki 545,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2021-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1288,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 %ini) tashkil etadi.

2021-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,9 %ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 237,5 | 366,2 | 128,7 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 1701,9 | 1546,0 | -155,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 143,8 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 19,3 | 15,3 | -4,1 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 28,9 | 14,7 | -14,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 21 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 49,0 %ga kamaygan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9135,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 108,2%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,5%ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr |
|---|---|
| 45,0% | 36,5% |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2020-yil yanvar-noyabr | 2021-yil yanvar-noyabr |
|---|---|
| 55,0% | 63,5% |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 1,7% (2020-yil yanvar-noyabr oylarida 2,0 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 17,1%ni va Qo‘qon shahrida 16,0%ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 1564,3 mlrd so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 17,1 %, Qo‘qon shahrida 1459,9 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 16,0 % shuningdek, Farg‘ona shahri 1023,1mlrd so‘mlik, 17,1 %ni tashkil etdi.*




**8446,8** *mlrd. so‘m*

*2020-yil yanvar-noyabr*

***9135,9*** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-noyabr*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** **102,4%**

**2021-yil** **108,2 %**

## Farg‘ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg‘ona shahriga to‘g‘ri kelib, 26,5%ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 15,2 %ni, Toshloq tumani 12,3%,Uchko‘prik tumani 8,6 %ni tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2020-yil**
18 959,5 mlrd. so‘m

**2021-yil**
24 392,6 mlrd. so‘m



**2020-yil** 100,2 %

**2021-yil** 107,8 %



## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 17,4 % shuningdek, Uhko‘prik tumani 15,1 %, Farg‘ona shahri 13,8 %ni tashkil etadi.*

**4994,9** mlrd. so‘m

*2020-yil yanvar-noyabr*

**5488,6** mlrd. so‘m

*2021-yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** 100,8 %

**2021-yil** 109,9 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg`ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko`prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,2 % ni, shuningdek, Qo`qon shahri 13,8 % ni, Marg`ilon shahri esa 8,8 % ni tashkil etdi.*




*3451,8 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-noyabr*

*3647,3 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-noyabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg`ona shahrida (21835,7ming so‘m), Qo`qon shahrida (14394,1ming so‘m) hamda Toshloq tumanida (14453,2 ming so‘m) ,Uchko`prik tumanida (9022,3 ming so`m) .*




### Farg`ona viloyati

2020-yil
**4798,8 mlrd. so‘m**

2021-yil
**6 337,4 mlrd. so‘m**



02
2020-yil
95,4%

04
2021-yil
105,9 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2373,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 5662,3 ming so‘mni, Uchko‘prik tumanida 6691,0 – Farg‘ona shahrida 3460,3 Marg‘ilon shahrida 3647,5 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2020-yil**
1864,7 ming. so‘m

**2021- yil**
2373,6 ming. so‘m



**2020-yil** 100,4 %

**2021-yil** 108,7 %




*ming. so‘m*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021-yilning yanvar-noyabr oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 709,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,9 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Furqat, Yozyovon tumanlari Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buvayda tumani (86,1%),Dang‘ara tumani (84,9%), Uchko‘prik tumani (83,7%), Bag‘dod numani (81,3%), Rishton tumani (63,5%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani(12,4%),Furqat tumani (31,0%), Quvasoy shahri (31,0%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 10321 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 9916 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1413 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 14,2 %) Qo‘qon shahriga, 1124 tasi (11,3%) Farg‘ona shahriga, 1023 tasi (10,3 %) Marg‘ilon shahriga, 673 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 583 tasi (5,8 %) O‘zbekiston tumaniga, 582 tasi (5,8 %) Buvayda tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 1672 dona

**2021-yil** — 2014 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020-yil** — 8923 dona

**2021-yil** — 9916 faol korxona

**Farg‘ona viloyat statistika**

**boshqarmasining**

**Sanoat statistikasi bo‘limi**

**Nashr uchun mas’ul: Sh.Zokirov**

***Aloqa telefoni: 73 -249-87-19***